

ITALYAN VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING MA’NOVIY JIHATDAN O‘XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Ashirboyeva Sevinch Axrorjonovna

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

Filologiya tillarni o‘qitish italyan tili 4 - bosqich talabasi

mirjalolxonmuslimaxon@gmail.com

***Annotatsiya:** Italyan maqollarida vatanparvarlik g‘oyalarning nomoyon bo‘lishi va ularning etimologik tahlili atrolicha izohlab berildi.*

***Kalit so‘zlar:** Italyan va o‘zbek maqollari o‘xshash va farqli jihatlari haqida maqola.*

Abstract: In this article, Attitudes to Italian and Uzbek proverbs, was explained in details.

Keywords: In this article, interpretation of Italian and Uzbek proverbs

Аннотация: Подробно объяснялось отсутствие патриотических идей в итальянских пословицах и их этимологический анализ.

Ключевое слова: Статья о сходствах и различиях итальянских и узбекских пословиц.

Italyan tili roman tillaridan biri bo‘lib, undan asosan Italya, Shvetsariya, Vatikan, San Marinoda gaplashiladi. Til o‘zining jozibasi va musiqiy ohangi bilan o‘rganuvchilarni o‘ziga jalb qilmoqda. Ammo har bir xalq o‘g‘zaki ijodi va urf-odatlari o‘zgachaligi va jozibadorligi bilan ayrimlari o‘xshash bo‘lsa ayrimlari ajralib turadi, keng qamrovliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Bizning umumiy milliy xususiyatlarimiz juda yaqin

bo'lsada, italyan qadimiy tarixi, urf-odatlari, an'analari, til, madaniyatiga xos betakror jihatlari bilan ajralib turadi". Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalanishi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir. Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan konstitutsiyadir. Maqollarni "hayot qomusi", xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar vamuammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Maqolning nomi birinchi marta Yunonistonda V asrda ham komik, ham tragedik yo'nalishda ijod qiluvchi yozuvchilar ijodida va Aflotunning dialoglarida tilga olingan. Maqolga ba'zan "parola", ba'zan "discorso", "racconto" sifatida ta'rif berilgan, lotin tilidan olingan verbum e praeceptum atamalariga murojaat qilingan.

Vatan va vatanparvarlik: E meglio bere acqua in patria, che vino all'estero o'zga yurtning vinosida o'z yurtida suv ichgan afzal o'zga yurtda shox bulguncha o'z yurtida gado bo'l.

Mexnatsevarlik va ish yoqmaslik: Solo quando il lavoro e' fatto, si riposa il diligente serg'ayrat ish tugaganda keyingina dam oladi .Qo'ling ishda, ko'ngling Allohda bo'lsin.

Halollik va tekinxo'rlik: L'onesta non si compra Halollikni sotib bo'lmaydi

Haromdan ming tanga haloldan bir tanga.

Maqollar ustida izlanishlar olib borar ekanmiz, shu o'rinda paremiologiya sohasiga murojaat qilishimiz shart. "Paremia" grekcha so'z bo'lib, " Hikmat, naql, hikmatomuz obrazli ibora" ma'nolarini anglatadi. Italyancha "Le buone parole ungono, e le cattive pungono" o'zbek tiliga -"Yaxshi so'z xush keladi, yomon so'z chaqib oladi" deb tarjima qilinadi.

O'zbekcha muqobil variant sifatida "Yaxshi so'z- jon ozig'i, yomon so'z-bosh qozig'i" maqolini keltiramiz. Patti chiari, amicizia lunga - Hisobli do'st ayrilmas;

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, bir qismi tasviriy xususiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir: Non dire all'amico ciò che sai, perché un giorno nemico averlo potrai –Do'stga aytdim so'zimni, Dushman bildi sirimni;

Un nemico è troppo e cento amici non bastano - Do'st ming bo'lsa ham-oz, Dushman bir bo'lsa ham ko'p: Chi si marita con parenti, corta vita e lunghi tormenti- Qarindoshdan qiz olma, Qarindoshga qiz berma . O'zbek tilida ba'zan 4 komponentli maqollar ham uchrab turadi. Biroq italyan maqollari orasida 4 komponentli maqollar kam uchraydi.

Zamon seni o'qitar,

Tayoq bilan so'kitar.

Sabog'ingnibilmasang.

Do'konda bo'z to'qitar.

"Maqollar shakliga ko'ra, nasriy hamda she'riy tuzulishga ega bo'ladi: La buona moglie fa il buon marito-xotin yaxshi - er yaxshi;

Meglio un bravo vicino che un parente lontano-uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yaxshi kabi maqollar nasriy tuzilishdagi maqollar hisoblanadi.

Har ikki tildagi maqollarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida xalqning mentaliteti va milliy xarakteri asosiy yetakchi hisoblanadi. Shu o'rinda italyan va o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda tildagi maqollar ixcham va ifodali tarzda xalqlarning milliyiligini ko'rsata oladi. Ya'ni ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo'nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi va o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari maqollarda ibratlilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ 1875 sonli qarori, 2012-yil 13-dekabr.
2. Augusto Alfani , Proverbi e modi proverbiali , Tipografia e Libreria Salesiana Torino,1882.
3. Pareoparemiologia in: Trovato C. Salvatore, 1999.5.
- 4.Imomov K.Mirzayev T.,Sarimsoqov B.Safarov O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi.-T.;O‘qituvchi,1990.
- 5.Jan Pavlik Strutture morfosintattiche nei proverbi italiani del campo
6. <https://www.frasimania.it/proverbi-italiani/>